
Periphrasis: on the example of bilingual dictionaries

Nashirova Shakhnoza Burievna
PhD, docent,
Faculty of Foreign Languages,
Karshi State University

Annotation *The presence of periphrases in bilingual dictionaries is in the focus of lexicographic research. It should be noted that the aspects that should be taken into account in the process of implementing the linguistic interpretation of periphrastic expressions are finding their equivalents in both languages, as well as filling the corresponding "lexical gap" in the absence of an alternative to the selected figurative expression in the second language, as well as preserving the features of emotional-expressive and stylistic coloring in the translation process. In general, the implementation of the linguistic analysis of periphrases in bilingual dictionaries creates an important basis for future research in this area.*

Keywords *Bilingual dictionaries, figurative expression, periphrastic expressions, linguistic analysis, alternative option, comparative approach*

Perifrazalar: ikki tilli lug'atlar misolida

Nashirova Shaxnoza Buriyevna
PhD, Xorijiy tillar fakulteti dotsenti,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya *Perifrazalarning ikki tilli lug'atlar tarkibidan o'rin olishi leksikografik tadqiqotlar diqqat markazidadir. Qayd etish lozimki, perifrastik ifodalarning lingvistik talqinini amalga oshirish jarayonida e'tiborga olish lozim bo'lgan jihatlar ularning har ikki tildagi ekvivalentlarini topish, shuningdek, agar tanlangan tasviriy ifodaning ikkinchi tildagi muqobili mavjud bo'lmasa, uning o'rniga mutanosib "leksik bo'shliq"ni to'ldirish, shuningdek, tarjima jarayonida emotsional-ekspressiv hamda stilistik bo'yoqdorlik xususiyatlarini saqlab qolishdan iboratdir. Umuman olganda, ikki tilli lug'atlar tarkibidagi perifrazalarning lingvistik tahlilini amalga oshirish sohada amalga oshirilajak kelgusi tadqiqotlar uchun muhim zamin yaratadi.*

Kalit so'zlar *Ikki tilli lug'atlar, tasviriy ifoda, perifrastik ifodalar, lingvistik tahlil, muqobil variant, qiyosiy yondashuv*

Перифраза: на примере двуязычных словариев

Наширова Шахноза Буриевна
Кандидат наук, доцент,
Факультет иностранных языков,
Каршинский государственный университет

Аннотация *Наличие перифраз в двуязычных словарях находится в центре внимания лексикографических исследований. Следует отметить, что аспекты, которые необходимо учитывать в процессе реализации языковой интерпретации перифразических выражений, включают поиск их эквивалентов в обоих языках, а также заполнение соответствующего*

«лексического пробела» при отсутствии альтернативы выбранному образному выражению во втором языке, а также сохранение особенностей эмоционально-экспрессивной и стилистической окраски в процессе перевода. В целом, реализация языкового анализа перифраз в двуязычных словарях создает важную основу для будущих исследований в этой области.

Ключевые слова *Двуязычные словари, образное выражение, перифразические выражения, языковой анализ, альтернативный вариант, сравнительный подход*

Tilshunoslikda voqea-hodisalar va shaxslarni o'z nomi bilan emas, balki ularning belgi-xususiyatlarini tasvirlash orqali yangidan nomlash hodisasi tasviriy ifoda yoki perifraza deyiladi. Perifraza atamasi har qanday tilda asosiy tushunchasi bir tilning boyligi va xilmaxiligini ifodalash uchun qo'lanadi. Perifaza atamasining invariantlari parafraz va perifraz mavjudligi va ma'no jihatidan bir hil tushunchaga ega hisoblanadi. Ko'pgina to'plangan xorijiy ilmiy ishlar va maqolalarda "perifraza" atamasi boshqa sinonim atamalariga nisbatan ko'proq qo'lanilgan. Asli "Perifraziya" so'zi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, yunoncha "periphrasis" so'zidan olingan bo'lib, "peri" "atrofda" yoki "haqida" va "phrazein" "ifoda qilish" yoki "aytish" degan ma'noni anglatadi. Ushbu elementlarning kombinatsiyasi "perifraza" ga biror narsani aylanma yoki aylanma tarzda ifodalash ma'nosini bildiradi. Bu atama tilshunoslikda tillarni ixchamroq ifodalanishi mumkin bo'lgan ma'noni yetkazish uchun ortiqcha so'zlarni yoki uzunroq iboralarni ishlatishni tasvirlash uchun qabul qilingan.

Professor A. Hojiyevning (1985) "Til atamalarining izohli lug'ati"da bu atama perifraza shakliga ega bo'lib, "narsa" o'z nomi bilan emas, balki o'ziga xos kontekst orqali ifodalanadigan uslubiy vosita, so'zning o'ziga xos xususiyati. Dala malikasiga (makkajo'xori), Revolyutsiya beshigi (Leningrad). Tilshunos olim Galperin (1981; 169) perifraza atamasiga shunday ta'rif beradi, ya'ni "lingvistik tabiati nuqtai nazaridan qaraganda, perifraza

obyektning nomini o'zgartirishni anglatadi va shuning uchun ularning denotatarining to'g'ridan to'g'ri nomlari o'rnini bosuvchi so'z belgilarining umumiy guruhi bilan birga ko'rib chiqilishi mumkin". Ba'zi bir so'z yoki iboralarni to'g'ridan to'g'ri aytish o'rniga, ba'zida yozuvchi yoki so'zlovchi uning ma'nosini muqobil yoki sinonimik so'zlar bilan amalga oshiradi. Misol uchun, "o'rmon shohi" (sher)ning ajoyib shousi haqida e'lon. L.V. Grehneva (2009; 207) perifraza tushunchasining ma'nosini shunday tushuntiradiki, perifraz nominativ xarakterning tavsifiy ifodasidir. Obyektini ifodalovchi perifraz birikmasi uning xarakterli belgilarini nomlaydi. Professor Ashurovaning (2016; 235) ta'kidlashicha, "perifraziya – hodisaning yangi xususiyatini ko'rsatish maqsadida mumkin bo'lgan qisqaroq gap o'rniga uzunroq va aylana so'z birikmasini qo'llashdir". Olim Q. Musayev (2003; 119) tushunchani shu tarzda targ'ib qiladi. ibora bilan obyektning bunday nomini o'zgartirish kontekstda o'quvchi tomonidan oson tushuniladi. Olimning ta'kidlashicha, perifrazlar bilan ba'zi bir so'zlar, ifoda va to'plamlar o'quvchi yoki tinglovchiga tushunarli bo'lgan boshqa so'zlar bilan almashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, Musayevning fikricha, perifrazali so'z misollari kontekstsiz ham tushuniladi, chunki ular so'zlarning sinonimik ko'rinishlaridir.

"Perifraza" atamasi tilshunoslikda turlicha talqin qilinadi. Shunga ko'ra, bir nechta lug'atlardagi perifraza atamasining ta'rifi va talqini bilan tanishamiz "Ojegovning izohli

lug'ati" lug'atida perifrazaga boshqa ibora yoki so'zning ma'nosini tavsiflovchi ibora berilgan. D.E. Rosenthal va M.A. Telenkovlarga (1976) lug'atida bu atama "parafraza va parafraz" sifatida keltirib o'tilgan va quyidagicha izohlanadi:

1. Ifoda tavsiflovchidir. Boshqa ibora yoki so'zning ma'nosini yetkazish. Ushbu satrlarning muallifi (muallif nutqidagi "men" o'rniga)
2. E'tiroz bildiruvchi nomini almashtirishdan iborat bo'lgan trophodisalarning xarakterli xususiyatlarini tavsiflash bilan. Hayvonlar shohi ("sher" o'rniga).

Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash yoki shunday ifoda perifrazadir. Masalan: *dala malikasi* (*makkajo'xori*), *zangori olov* (*gaz*) kabi. Parafrazalar stilistik vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi. Jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda lug'at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan qochish imkonini beradi. Notiqni so'zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada qilishga undaydi. O'zbek tilidagi parafrazalarni o'rgangan tilshunos olim Ixtiyor Umirov mazkur uslubiy vositalarga quyidagicha ta'rif bergan. Parafraza – predmet, voqea va hodisalarni o'z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi-xususiyatlarini tasvirlash orqali yangidan nomlashdir. Jumladan, *oq oltin – paxta, ziyolilar – ilmi kishilar, yashil fasl – bahor* va boshqalar (Galperin, 1981).

Perifraza faqat tilshunoslikda qo'llaniladiga uslublardan bo'lib qolmay boshqa, masalan, ommaviy axborot vositalari, iqtisodiyot, ilm-fan, geografiya, tibbiyot, siyosat, arxetiktura va yana bir qancha boshqa sohalarda ham qo'llaniladi. Shundan kelib chiqib, perifrazani o'toqli otlar bilan qo'llanilishini tasniflab va bu tasniflarga o'zbek va ingliz tillarida misollar keltiramiz va ikkita tilni perifrazik uslubini bir xillik yoki har xillik jihatlarini taqoslab ko'ramiz.

- Shaxs ismining o'toqli otlari perifraza orqali ifodalash
- Joy nomlarning o'toqli otlari perifraza orqali ifodalanishi
- Narsa- buyumlarning o'toqli otlari perifraza orqali ifodalanishi

Perfrazaning shaxs ismning o'toqli otlar orqali ifodalashiga tarixda buyuk ishlari bilan tanilgan yoki yovuz xati-harakatlari bilan barchaning yodida qolgan o'tkir hukumdorlar yoki siyosatchilar, tinchlik va ozodlik uchun kurashgan vatanparvarlar insonlar, ilm-fan ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan olimlar, o'z noodatiy uslubi bilan tanilgan adib, qo'shiqchi, raqossalar, sportda xayratlanari natijaga erishgan sportchilar xalqi tomonidan qilgan ishlari uchun turli nomlar bilan ataladi, ta'riflanadi. Bu tariflar albatta perifraza uslubi orqali amalga oshirilgan.

Shaxs ismining o'toqli otlari perifraza orqali ifodalash

Masalan ingliz tilida:

1. The Flower of Kings, The Once and Future King, Matter of Britain – King Arthur
2. Bloody Mary – Queen Mary I of England
3. The Bard of Avon, England's National Poet – William Shakespeare
4. The Virgin Queen – Elizabeth I
5. The Lady with the Lamp – Florence Nightingale
6. The Iron Lady – Margaret Thatcher
7. The First Black President – Barack Obama
8. Ponyboy, Chip Off the Old Blockhead, Fredo Corleone – Donald Trump
9. The King of Pop – Michael Jackson
10. Father of Modern Surgery – Lister
11. The People's Princess – Diana Spencer
12. The Tramp, Little Tramp, The Little Fellow, Charlot – Charlie Chaplin
13. The Man Behind The Machine – Bill Gates
14. Grandmother of Europe, The Widow at Windsor, The Woman in Black – Queen Victoria
15. Elizabeth the Great, The Forever Queen, The Unabating – Elizabeth II

O'zbek tilida misollarga to'xtalsak:

1. Buyuk davlat arbobi, Buyuk Sarkarda, Sahibkiran – Amir Temur
2. Massagetlar Malikasi – To’maris
3. Shoh va Shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur
4. O’zbek romanchiligi otasi – Abdulla Qodiriy
5. Buyuk mutafakkir, G’azal mulki sultoni – Alisher Navoiy
6. Algebra fanining asoschisi – Muhammad Ibn Muso Al – Xorazmiy
7. Buyuk hakim, Shayx ur-Rais, Tib ilmining Sultoni – Abu Ali Ibn Sino
8. O’zbek futbol qiroli – Mirjalol Qosimov
9. O’zbekiston Respublikasining 1- prezidenti – Islom Abdug’aniyevich Karimov
10. Maqom mulkining sultoni – Yunus Rajabiy
11. Muhabbat kuychisi – Anvar Sanayev

Yuqorida keltirilgan perifriza ta’riflari har ikkita tilda ham insonlarning nomlari ularning jamiyatiga va butun dunyoga qo’shgan hissasi uchun ularning nomini ulug’lab qo’yilgan. Asosan bu perifriza ta’rif nomlar ular haqida publitsistika janrida maqolalar yoki kitoblar yozilganda kitob sarlavhalariga, gazata maqolalari sarlavhasiga yoki tadbirlarda e’lon qilinganda ularga hurmat yuzasidan ishlatiladi.

Joy nomlarining atoqli otlari perifriza orqali ifodalanishi

Joy nomlari atoqli otlar perifriza orqali ifodalanishiga to’xtaladigan bo’lsak, joylarning, davlat, shahar, bino, qishloq, o’rmonlar nomlanishi ularning rivojlanishi, iqtisodiyati, joylashuvi, davlat ramzi, tarixiyli, iqlimi, sharoiti, quyosh chiqish yoki botishi, hosildorligi kabi belgilarga qarab berilgan perifriza ta’riflar hisoblanadi. Masalan, ingliz va o’zbek tillarida shahar nomlarining perifriza atamalarini misollar yordamida ko’rib chiqsak.

The big Apple – New York;
The Old Smoke – London;
The city of Love – Paris;
The Land of Rising Sun – Japan;
The red Dragon – China.

O’zbek tilida shaharlarga berilgan perifrizarlar:

Non Shahri – Toshkent;
Dunyo sayqali – Samarqand;
Islom quvvati – Buxoro;
Ochiq osmon ostidagi tirik muzey – Xiva;
Alpomishlar yurti – Qashqadaryo.

Yuqorida keltirilganidek shahar nomlari ingliz va o’zbek tillarida ham ularning o’ziga xos jihatidan yoki tarixda qoldirgan izidan kelib chiqib bu shaharlarni boshqa shaharlarda ajratib turadiga perifriza atamalarini bilan nomlangan.

Narsa- buyumlarning atoqli otlari perifriza orqali ifodalanishi

Narsa buyumlar ishlangan buyum materilari, rangi, vazifasi, hajmi, orqali, avvaldan mavjud bo’lgan va bugunda takomilashgaligiga qarab perifrizashtiriladi. Ingliz tildagi narsa- buyumlarga berilgan perifrizarlar bilan tanishamiz.

Small screen, telly – a TV;
Bubble water, club soda – a coke;
Horseless carriage, wheels – a car;
Ice- chest, chiller – a fridge.

Quyidagi misollarda o’zbek tilda narsa- buyumlarning atoqli otlarning perifriza orqali ifodalanganini ko’rsatilib o’tilgan:

Zangori ekran, o’ynayi jahon – Televizor;
Po’lat ot – mashina;
Po’lat qush – samolyot;
Qora oltin – neft;
Oq oltin – paxta;
Dala malikasi – makkajo’xori;
O’rmon malikasi – archa.

Tasviriy ifodalarda ham omonimlik, sinonimlik hodisalari mavjuddir. Bitta tasviriy ifoda ikki yoki undan ortiq tushuncha uchun qo’llanilganda omonim tasviriy ifodalar hosil bo’ladi. Masalan,

Qora oltin I – ko’mir;
Qora oltin II – neft;
Aql gimnastikasi I – Shaxmat;
Aql gimnastikasi II – matematika;
Asr vabosi I – Giyohvandlik;
Asr vabosi II – OITS.

Tasviriy ifodada biz ishlatmoqchi bo'lgan birlik bilan tasviriy ifodada ishlatgan so'z o'rtasida belgi yoki shakily jihatdan aynan o'xshashlik, bog'liqlik mavjud bo'ladi. Bugungi kunda hech bir lug'atda ana shu tasviriy ifodalar berib o'tilmagan, ular mavjud emas. Lug'atlarimizdagi eng katta kamchiliklardan biri ham shu sanaladi. Ushbu dolzarb masalani yechish lug'atshunos, tarjimashunoslar oldida turgan yuksak mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Parafrazalar nafaqat jozibadorlik, obrazlilik va nutqni boyitish, balki uning mazmunini kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi. Shuningdek, jamiyatning olg'a qadam qo'yishiga to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ularga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham qo'llanadi. Binobarin, parafrazalar predmet, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

References:

1. Ashurova, D. U., & Galiyeva, M. R. (2016). *Stylistics of literary text*. Turon-Iqbol.
2. Galperin, I. R. (1981). *Stylistics*. Higher School.
3. Grehneva, L. V. (2009). *On some aspects of periphrastic nomination*. [Publisher missing].
4. Hojiev, A. (1985). *Annotated dictionary of linguistic terms*. Fan.
5. Musayev, Q. (2003). *English stylistics*. Adolat.
6. Rozental, D. E., & Telenkova, M. (1976). *Dictionary reference book of linguistic terms*. Prosveshcheniye.
7. Xojiev, A. (2002). *Тилишунослик терминларининг изоҳли луғати*. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.